

TA'LIMDA O'QUV LUG'ATLARINING O'RNI

Qoryog'diyeva Zulfizar Oybek qizi

E-mail: goldencurl02@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Gumanitar fanlar fakulteti, III bosqich talabasi

Annotatsiya – maqolada yangi darsliklarga munosabat bildiriladi, qo'yiladigan talablar tanqidiy tahlil qilinadi. Lug'atlarga bo'lgan ehtiyojning kelib chiqish sabablari va ularning ahamiyati, o'quv lug'atlarini yaratish zaruratini yoritib, misollar yordamida dalillanib, darsliklarning sifatini oshirish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar –intelektual salohiyat, o'quv darsliklari, talab, ehtiyoj, lug't, estetik did, me'yor, omonimlar, kolorit, faol termin, nofaol termin, matn, badiiy obraz, grammatika

Hozirgi vaqtlarda sifatli o'quv materiallariga, jumladan maktab darsliklariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Yoshlarni yuqori intellektual salohiyat egalari qilib tarbiyalamoq uchun ham biz o'zimizning fan dasturlarimizga jiddiy ahamiyat berishimiz shart. Yangi o'quv darsliklarini kuzatadigan bo'lsak, ularda yaqin o'n yillar ichida chop etilgan darsliklardagi singari murakkab mashqlar, ko'chirish uchun topshiriqlarni deyarli uchratmaymiz. Negaki, bugungi kun talablariga ko'ra o'qituvchilar o'quvchilarni ko'proq mantiqiy, erkin fikrlashga, mulohaza qilishga o'rgatishlari kerak. Ammo har qanday fikr tilga ko'chsagina, uning umri uzayadi. Biz so'zlar vositasida aloqa qilar ekanmiz, mulohazalarimizni tinglovchiga yetkazib berish maqsadida tilimizning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanishga haqlimiz. Shu boisdan, maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

O'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan qimmatli va boy so'z zahirasini vujudga keltiradigan kichik hajmli lug'atlarga o'quv lug'atlari deyiladi. O'quv lug'atlari o'quv jarayoni bilan aloqador bo'lib, sekinlik bilan o'quv kompleksining to'laqonli a'zosiga aylanib boradi, o'quv mashg'ulotlariga, darslikka moslashtiriladi. Lug'at maqolalari sodda, aniq, tushunarli, hajman kichik, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'ladi.

O'quv lug'atlarining asosiy tavsifiy belgilari quyidagilar:

1. Darslikka moslashtiriladi. O'quv lug'atlari o'quv jarayoni bilan aloqador bo'lib, sekinlik bilan o'quv kompleksining to'laqonli a'zosiga aylanib boradi, o'quv mashg'ulotlariga moslashadi.

2. Hajman kichik bo‘ladi. Hali o‘quv lug‘atchiligi ommalashmagan davrlardayoq, lug‘atlar xususida to‘xtala turib L.V.Sherba «barcha qisqa lug‘atlar foydalanuvchida oxir-oqibat bezovtalik keltirib chiqaradi. Kichik lug‘atlar maxsus toifadagilar uchungina yaratilishi mumkin...», - deya o‘quv lug‘atlarining hajman kichik bo‘lishiga ishora qilib ketgan edi. Chunki katta hajmli lug‘atlar bilan ishlash maktab o‘quvchilarida turli noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

3. So‘zlik sodda va tushunarli bo‘ladi. Lug‘at maqolalarining tuzilishi, jumalarning sodda, aniq va tushunarligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos so‘zlarni, eng zarur ma‘lumotlarni qamrab olishi, izohlarning so‘zning eng muhim qirrasini aniqlashga qaratilganligi, maqsadga aniq yo‘naltirilganligi, foydalanish uchun qulayligi bilan ham boshqa turdagi lug‘atlardan farqlanadi. O‘quvchi lug‘atni qo‘lga olgandayoq nimaga mo‘ljallangani, undan qanday ma‘lumotni izlash mumkinligi hamda foydalanish yo‘llarini bila olishi lozim.

4. Estetik didga mos bo‘ladi. Maqsadli ravishda yetarli va zaruriy bezaklar rasmlar, qo‘shimcha materiallar bilan boyitilishi, leksikografik simvolikaga kam yo‘l berilganligi bilan ham xarakterlanadi.

5. Mashqlar ilova qilinadi. O‘quv lug‘atlarining o‘quv uslubiy qurilmasi lug‘atdagi ma‘lumotlarga munosabat bildirishga jalb qiluvchi qo‘shimcha savollar tizimi, leksikografik belgilarning sodda izohi, diqqatni tortadigan noan‘anaviy usullarda tuzilgan lug‘at bilan ishlash mashqlari bilan boyitilishi lozim.

6. Adabiy til me‘yorlarini o‘rgatadi. Lug‘atlarning aksariyati adabiy til me‘yorlarini belgilash vazifasini bajaradi. Lug‘atning me‘yoriyligi shundan iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so‘z yasash va uni ishlatish me‘yorlari tavsiya etiladi. Buning uchun so‘zlar lug‘atga, o‘zlarining umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan o‘rni va qo‘llanish doirasiga ko‘ra tanlab kiritiladi. Lug‘atda har bir so‘zning maqbul yozilish shakli, (o‘zlashma so‘zlarning) kelib chiqishi etimologiyasi, zarur hollarda, talaffuzi ko‘rsatiladi, ma‘nosi (yoki ma‘nolari) aniqlanadi va izohlanadi, so‘zlarning aniqlangan ma‘nolari va shu ma‘nolarda to‘g‘ri qo‘llanishi o‘zbek badiiy va ilmiy adabiyotidan, matbuotdan olingan misollar - iqtiboslar bilan dalillanadi.¹

Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya‘ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma‘nolarini o‘zlashtirish.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

a) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma‘nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya‘ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma‘nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma‘nosiga aniqlik kiritish;

¹ Abdullayeva O. O‘quv lug‘ati qanday lug‘at? O‘zbek milliy leksikografiyasining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, Turon zamin ziyo, 2017, 69-70-betlar.

- b) soʻzning kinoyali maʼnosini, koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻzlashtirish;
- 3) soʻzlarning sinonimlarini, sinonim soʻzlarning maʼno qirralarini oʻzlashtirish;
- 4) ayrim frazeologik birliklarning maʼnosini oʻzlashtirish.

Oʻquvchilar ona tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida oʻzlashtiradilar. Adabiyot darsida bolalar lugʻati maʼlum mavzularga oid soʻzlar hisobiga ham boyiydi. Matn ustida ishlash jarayonida koʻp maʼnoli soʻzlar, sinonimlar, koʻchma maʼnoda ishlatiladigan soʻzlarni, baʼzi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Bolalar mustaqil oʻqishga oʻrganganlaridan keyin ular lugʻatiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta tagʻsir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil oʻqish va unga rahbarlik shakllari oʻquvchilar lugʻatini boyitishning, nutqini oʻstirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni oʻrganish darslari koʻpgina soʻz va atamalarni oʻzlashtirishga yordam beradi, oʻquvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan soʻzlarni bilib oladilar. Bu darslarda oʻquvchilar lugʻati tartibga solinadi, soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida guruhlanadi, soʻz tarkibi, soʻz yasalishi, soʻzlarning oʻzgarishini oʻrganish bilan esa lugʻatga aniqlik kiritiladi; ular oʻrgangan soʻzlaridan oʻz nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lugʻatlari faollashadi. Oʻquvchilar lugʻati maxsus lugʻaviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi. Bulardan tashqari, kinofilm va telekoʻrsatuv matnlari, oʻqituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham oʻquvchilar lugʻatini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lugʻatni boyitishda turli lugʻatlar juda foydali qoʻllanmadir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun "Imlo lugʻati" mavjud. Oʻqituvchi maʼlumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lugʻatlardan (oʻzbek tilining sinonimlar, antonimlar, omonimlar, oʻzbek tilining izohli lugʻati) foydalanishi zarur boʻladi. Lugʻat ustida ishlash – yozma savodxonlikni oʻstirishning boshlangʻich nuqtasidir. Maʼlumki, har bir tilning lugʻat boyligi va grammatik qurilishi davr oʻtgan sari takomillashadi. Ularni puxta oʻzlashtirish asosida oʻquvchi oʻz fikrmulohazalarini ogʻzaki va yozma koʻrinishda ravshan ifodalaydi. Tilning lugʻat boyligi juda tez va toʻxtovsiz oʻsib boradi. Fan-texnika va madaniyatning taraqqiyoti natijasida lugʻat boyligiga yangi soʻzlar kirib keladi, ayrim soʻzlar esa davrlar oʻtishi bilan eskirib, istegʻmoldan chiqib ketadi, bagʻzilari esa eski maʼnosini yoʻqotib, yangi maʼnoga ega boʻladi. Bu ham tilda yangi soʻzlar paydo boʻlishining bir vositasidir. Lugʻat boyligidagi soʻzlar grammatik qonuniyatlar asosida oʻzaro birikib maʼlum kommunikativ vazifani bajaradi. Lugʻat boyligi va grammatik qurilishning qanchalik oʻzlashtirilishiga qarab oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqi ham shunchalik ravon va mazmunli boʻladi. Lugʻat boyligini oʻzlashtirish tor doirada boʻlsa yoki lugʻat ustida ishlash muntazam boʻlmasa, fikrlar ham sayoz va maʼnaviy kambagʻal boʻladi. Lugʻatning asosiy manbai badiiy va ilmiy adabiyotlardir. Shuning uchun nutqni takomillashtirish vositasi sifatida turli yoʻnalishdagi adabiyotlarni muntazam oʻqish

tavsiya qilinadi. Darslarda lug‘at ustida muntazam shug‘ullanish mashqlarini, yozma ishlarni o‘tkazib turish o‘quvchilar yozma savodxonligini oshirishda muhim omillardan biri sanaladi. Ona tili darslarida lug‘at o‘rgatish ishlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchi nutqining go‘zalligi, boyligi, ifodali va ta’sirchanligi uning lug‘at boyligiga bog‘liq. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lagan mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Shu boisdan bugungi kunda o‘quv lug‘atlariga talab yuzaga kelmoqda. To‘g‘ri, mustaqillik yillarida chop etilgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi berilgan bo‘lib, bular umumiy qo‘llaniladiganlaridir. Bunga o‘zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug‘atlarda, o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug‘atlarida va turli izohli lug‘atlarda berilgan so‘zlar qo‘shilsa, lug‘at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma’noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug‘atda bosh so‘zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog‘langan ma’noda ishlatilishi berilgan. Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi va o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Lug‘at ishida so‘zning ma’nosi, talaffuzi va imlosi e’tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o‘zgarlar nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Yangi nashrdagi ona tili darsliklariga e’tibor qarataylik. Misol uchun 5-sinf onatili darsligida yuqoridagi fikrlarimizning isbotini qisman ko‘rishimiz mumkin. Nega qisman? Shu savol javobiga to‘xtalamiz. Darslikda har bir mavzu so‘nggida darsda uchraydigan 2 yoki ko‘pi bilan 3 ta notanish so‘zlarning lug‘ati, har o‘tilgan ikki darsdan so‘ng, "Matn va lug‘at ustida ishlash" mavzusi berilgan. Ammo ularda o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning izohi to‘la yoritilmagan. Bu, albatta, kitob va uning bosma nashri uchun qo‘yiladigan talablarga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda o‘qituvchidan ulkan bilim va kuchli tayyorgarlik talab qilinadi. Darslikda berilgan lug‘atlarning o‘zi bilan cheklanmasdan, mashqlarda uchraydigan, o‘quvchilar kundalik turmushda duch keladigan yoki kattalardan ko‘cha-ko‘yda eshitgan, ammo izohiga kelganda javob berishga qiynaladigan so‘zlarining ma’nolarini, ishlatilish o‘rinlarini tushuntirib, nafaol nutqdan faol nutqqa olib kirishi lozim bo‘ladi. Lekin bu ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. 5 tomli izohli lug‘at, omonim, sinonimlar, antonimlar lug‘atini har darsda olib kelish yoki elektron lug‘atlardan notanish so‘zlarni qidirib topish biroz kuch hamda vaqt talab qiladi. Agar qoidalar jamlangan o‘quv qo‘llanmalari bo‘lgani kabi darsliklardagi notanish so‘z va iboralarning o‘quv lug‘atlari ham yaratilsa, bu bilan o‘qituvchi va o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga qulaylik yaratilgan bo‘ladi. Adabiyot darsida o‘quvchilar lug‘ati ma’lum mavzularga oid so‘zlar hisobiga ham boyiydi. Lug‘at boyligini oshishi uchun ham darsliklarda o‘quv lug‘atlari manbaga boy bo‘lishi kerak. Yozuvchilarimiz asarlarida davr

koloritini berish niyatida eskirgan soʻzlardan foydalanilgan oʻrinlar koʻplab kuzatiladi. Aynan shunday vaqtda adabiyot darsligining oʻzida bizga kerakli boʻlgan soʻzlarning maʼnolari izohlanmagan boʻladi. Bir qaraganda soʻzlar hammaga tanishdek, ongimizda maʼno kasb etgandek boʻlsa-da, aniq mazmun-mohiyatini anglab, nutqda ifoda etish uchun asosli jumlar topishga oʻquvchilar, baʼzan oʻqituvchilar ham ikkilanib qoladilar. Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasidan (7-sinf Adabiyot darsligi) olingan quyidagi parchadagi eskirgan soʻzlar izohiga eʼtibor beraylik.

Darslikda esa faqatgina 1ta soʻzning izohi sinoskada keltirilgan: “*Yelpishtovoq* –

“Oʻgʻri” hikoyasidan parchalar	Eskirgan soʻzlarning izohi
Qobil boboning qoʻshnisi – burunsiz ellikboshi kirdi	Ellikboshi – tar. 1 Oʻrta asrlarda: qirq-ellik otliq askar boshligʻi. 2 Oʻrta Osiyo xonliklarida kichik amaldor, oqsoqol.
Ellikboshi betoʻxtov aminga xabar qilmoqchi boʻlib chiqib ketdi.	Amin – qishloqni boshqaruvchi amaldor. AMIN I [a. - xalol, ishonchli; vakil qilingan nazoratchi] faqat kesim vzf. 1. Qatʼiy ishongan, astoydil inongan, imoni komil. Biz bu yil, shuncha shodlik keltirgan yangi yilda, eng yaxshi orzularimizning roʻyobga chiqishiga amin edik. 2 Himoya qilingan, kafolatlangan, saqlangan. Chegaralarimiz har qanday xavf-xatardan amin. Xushyor boʻlsak, vatanimiz har qanday tasodiflardan amin boʻladi. AMIN II tar. 1 Oʻrta Osiyo xonliklari- da daha boshligi yoki qishloq oqsoqoli. -2. Bozorlarda soliq undiruvchi amaldor; bozor oqsoqoli. “Pulning xam olti tangasini bozor aminlari olishdi” «Goʻroʻgʻlining tugilishi». 3 Chorizm davrida: Fargona vodiysida saylab qoʻyiladigan qishloq oqsoqoli. 4 Amin (erkaklar ismi).
<i>Qobil bobo yor-doʻstlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa boʻladi? Maʼlum boʻldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan</i>	Pristav – pristavit «qarab, nazorat qilib turish uchun qoʻymoq, tayin- lamoq» fl. dar Rossiyasida: kichikrok xududdagi mahalliy politsiya boshligʻi.

don yelpishga moʻljallangan katta yassi tovoq”. Vaholangki, yuzaki oʻqiganda ham yarq etib koʻzga tashlanadigan, maʼnosini sharhlashda oʻquvchi oqsaydigan soʻzlar yoʻq emas. Xuddi shularga oʻxshab oʻquvchilar uchun notanish boʻlgan soʻzlar barcha sinf darsliklarida koʻzga tashlanadi. Ana shunday lugʻatlarni darslik asosida ishlab chiqib, choʻntak lugʻatlari hoida bosmadan chiqarilsa bir qator qulayliklarga erishilgan boʻlishi hech shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Mengliyev, B.Bahriddinova. O'quv lug'atlari. "Ma'rifat", 2013 y.,№82.
2. B.Bahriddinova. O'quv lug'atlarining tavsifiy belgilari. "O'zbek tilshunosligi masalalari". Ilmiy to'plam. No4. Qarshi, "Nasaf" n., 2014 y., 9-12-betlar
3. B.Mengliyev, B.Bahriddinova. O'quv lug'atchiligi: talab va ehtiyoj. "Ayyub G'ulom va o'zbek tilshunosligi masalalari". Ilmiy to'plam. Toshkent, 2009. - b.34-41
4. "ADABIYOT" Qayta ishlangan 4-nashri Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. «SHARQ» NASHRIYOTI. TOSHKENT – 2017. – 312-316- betlar.
5. "ONA TILI" 5-sinf uchun darslik. To'la yangilangan 5-nashr, G'afur G'ulom nashriyoti, T.: - 2020